

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 33 (1632), 2026-yil 18-fevral, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZARO MANFAATLI SHERIKLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-fevral kuni amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyo va Ozarbayjon bo‘yicha savdo vakili lord Jon Olderdaysni qabul qildi.



O‘zbekiston bilan Buyuk Britaniya o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli sheriklikni, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy sohada yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Siyosiy muloqot jadal rivojlanayotgani, barcha darajalarda almashinuvlar faol davom etayotgani ta’kidlandi. Xavfsizlik sohasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Keyingi 5 yilda tovar ayirboshlash 2 baravar oshdi. London fond birjasida O‘zbekistonning 15 milliard dollardan ortiq qiymatdagi suveren va korporativ obligatsiyalari joylashtirildi. O‘tgan yili Qo‘shma iqtisodiy qo‘mita mexanizmi ishga tushdi.

Britaniyalik hamkorlar bilan birgalikda Prezident maktablari tashkil etildi va uchta qo‘shma universitet muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan britaniyalik sayyohlarning soni ortib bormoqda.

Suhbat davomida energetika, moliya, geologiya, transport, kimyo, farmatsevtika, fan va ta’lim sohalarida yangi loyihalarini ilgari surish muhimligi ta’kidlandi.

Shuningdek, mintaqaviy va global ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AQSHGA JO‘NAB KETDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17-19-fevral kunlari Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatga jo‘nab ketdi.

Kengashning birinchi sammiti AQSH Tinchlik institutida bo‘lib o‘tadi hamda G‘azo sektorini tiklash, unga gumanitar yordam ko‘rsatish, ushbu mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash masalalariga bag‘ishlanadi.

O‘zbekiston yetakchisi tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida Amerikaning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari ishtirokidagi strategik loyihalar taqdimoti hamda

iqtisodiy sohaga oid ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimida ishtirok etishi ham ko‘zda tutilgan.

Eslatib o‘tamiz, Tinchlik kengashi AQSH Prezidenti Donald Trampning tashabbusi bilan tashkil etilgan. O‘zbekiston joriy yil yanvar oyida Shveysariyaning Davos shahrida unga ta’sischi davlat sifatida qo‘shildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON VA AQSH: IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR MUSTAHKAMLANMOQDA

Muntazamlik kasb etgan O‘zbekiston – AQSH siyosiy aloqalari iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa ko‘plab sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni faollashtirishga xizmat qilmoqda.



O‘zbek diasporasi AQSHda o‘zining iqtisodiy ishtirokini mustahkamlamoqda, milliy an’analarni saqlaydigan, vatandagi ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydigan va xalqimizning boy madaniy merosini targ‘ib qilish orqali ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni yaxshilashga hissa qo‘shadigan loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu voqealar, o‘z navbatida, davlatlar o‘rtasidagi bo‘lajak

rasmiy uchrashuvlar uchun ijobiy kontekstni shakllantiradi.

AQSHda o‘zbek diasporasining faol ishtirokiga yangi milliy savdo markazining ochilishi misol bo‘la oladi. Amerikaning Pensilvaniya shtatidagi Filadelfiya shahrida “Asr” o‘zbek supermarketining rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davomi 2-betda

MAHALLA – YANGI O‘ZBEKISTONNING YURAGI



Prezidentimiz shu yil 16-fevral kuni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Ushbu tarixiy hujjat bilan Mahalla infratuzilmasini yanada takomillashtirish va ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi ham tasdiqlandi.

Mazkur dasturlar ilg‘or xorijiy tajriba, zamonaviy boshqaruv standartlari va milliy taraqqiyot ehtiyojlari asosida mutlaqo yangi yondashuv ruhida ishlab chiqilgani bilan ahamiyatlidir. Ularda davlat siyosatining joriy yil uchun belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlari, aniq maqsadli ko‘rsatkichlari

va ularga erishishning puxta o‘ylangan mexanizmlari mujassam. Eng muhimi, ushbu hujjatlar mahallaga shunchaki ijtimoiy institut sifatida emas, balki taraqqiyotning tayanch nuqtasi sifatida qaralayotganidan dalolat.

Davomi 3-betda

IPAKCHILIK SOHASI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ipakchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda ipakchilik va pillachilik aholini daromadli ish bilan ta’minlash, qishloq joylarda bandlikni oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Lekin ozuqa bazasidan boshlab, pillani chuqur qayta ishlashgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda to‘planib qolgan muammolar soha salohiyatini to‘liq ishga solishga to‘sqinlik qilmoqda.

Xususan, ipak qurti urug‘ining salmoqli qismi import hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Mahalliy urug‘dan foydalanish darajasini 2030-yilgacha 75 foizga yetkazish imkonini borligi, buning uchun naslli urug‘chilik stansiyalari faoliyatini tiklash zarurligi qayd etildi.

Taqdimotda Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi naslli urug‘chilik stansiyalarida elita urug‘lar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, mavjud 10 ta ipak qurti urug‘chilik korxonasiga qo‘shimcha joriy yilda Buxoro va Namanganda 2 ta yangi urug‘chilik korxonasini, 2027-2029-yillarda Toshkent, Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida 4 ta yangi korxona tashkil etish rejalari haqida axborot berildi.

Naslchilik va urug‘chilik korxonalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga xorijiy malakali mutaxassislarni jalb qilish, mavsumiy

ishchilar mehnatiga haq to‘lash xarajatining yarmini qoplab berish hamda ularning faoliyatini daromad va ijtimoiy soliq obyekti sifatida hisoblamaslik taklif etildi.

Pilla sifatini oshirish uchun ozuqa bazasini yaxshilash zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Ozuqa bazasini 2026-2030-yillarda bosqichma-bosqich kengaytirish rejalashtirilgan. Jumladan, 8 ming gektarda yangi tutzorlar barpo qilish, 41,5 ming gektar maydonda yakka qator tut ko‘chatlarini ekish, 15 ming gektardagi tutzorlarni rekonstruksiya qilish nazarda tutilgan. Buning natijasida 2030-yilga qadar 200 millionta tut ko‘chatlari ekilishi va ozuqa bazasi 30 foizga oshishi kutilmoqda.

Pilla yetishtirish hajmlari ozuqa bazasini tahlil qilish asosida prognozlashtiriladi. Xususan, 2026-yilda 30 ming tonna, 2030-yilga borib 36 ming tonna pilla yetishtirishga chiqish reja qilinmoqda.

Sohadagi ishlar yangi tizim asosida tashkil etiladi. “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi, viloyat va tuman “Agropilla” tuzilmalari, ipakchilik klasterlari o‘zaro muvofiqlashgan tarzda ish yuritib, yangi tutzorlarni tashkil etishdan tortib, yetishtirilgan pillani sotib olishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda fermerlar, kasanachilar va

qurt boquvchilar ishini tashkil etadi hamda ularga ko‘maklashadi.

Kam daromadli, ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarni pillachilikka jalb etish va ularni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, joriy yildan boshlab “mahalla yetiligi” orqali aholiga 1 kilogramm pilla qiymatining 35 foizi miqdorida subsidiya, parvarishlash jihozlari va uskunalar xaridiga 20 million so‘mgacha ssuda ajratish yo‘lga qo‘yiladi.

Pillachilikda sanoat usulini kengaytirish muhim vazifa sifatida belgilandi. Hozirda pillaning asosiy qismi xonadon sharoitida yetishtirilayotgani qayd etilar ekan, maxsus qurtxonalar tashkil etish orqali hajm va sifat barqarorligini ta’minlash mumkinligi ta’kidlandi. Klasterlar tomonidan qurtxonalarini qurish va ishga tushirishni rag‘batlantirish, shu jumladan, qurtxonalarini yer va mol-mulk solig‘idan 2029-yil 1-yanvargacha qadar ozod qilish taklif qilindi.

Eksport va qo‘shilgan qiymatni oshirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

Ayni paytda mahalliy pilladan yuqori sifatli xom ipak olish va uni qayta ishlash ulushi pastligicha qolayotgani qayd etildi. Sifatini oshirish va chuqur qayta ishlashni kengaytirish hisobiga eksport tushumlarini 250 million

O‘ZA

RAMAZON – XAYR-U SAXOVAT, MEHR-U MURUVVAT OYI

Bu yil ham shunday bo‘ldi. Prezidentimiz

“RAMAZON — MEHR-MURUVVAT, AHILLIK VA SHUKRONALIK OYI”da yurtimizda inson qadrini yanada ulug‘lash, aholini ijtimoiy himoya qilish va adolatli jamiyat barpo etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida “Vaqt” xayriya jamoat fondiga 750 MILLIARD SO‘M hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali 300 MILLIARD SO‘M ajratilishi bo‘yicha ko‘rsatma berdi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda IJTIMOIIY DAVLAT

TAMOYILI asosida yo‘lga qo‘yilgan mehrli siyosat tom ma’noda hayotiy ifodasini topmoqda, xalqimiz mehrini qozonmoqda. Bu xalqparvar siyosat namunasi, ayniqsa, Ramazon oyida yanada yorqin namoyon bo‘lib, mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilayotgani bor gap.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Ramazon oyida 700 MINGTA OILAGA MODDIY YORDAM KO‘RSATILADI. Shuningdek, 6 MING FUQARONING DAVOLANISHI VA ZARUR JARROHLIK AMALIYOTLARINI O‘TKAZISH BILAN BOG‘LIQ XARAJATLAR QOPLAB BERILADI.

O‘ZBEKISTON VA AQSH:

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR

MUSTAHKAMLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Ushbu loyiha Filadelfiyadagi o‘zbek diasporasi vakillari tomonidan amalga oshirildi. Tantanalı tadbırda o‘zbek jamoatchiligi bilan bir qatorda turk, falastin, afg‘on, rus va ukrain diasporalari vakillari ham ishtirok etdi.

“Asr” supermarketining ochilishi Nyu-Yorkda faoliyat yuritayotgan “Tashkent” o‘zbek supermarketlar tarmog‘i singari AQSHdagi milliy savdo infratuzilmasining muhim bo‘lagiga aylandi. Filadelfiyadagi yangi markaz keng turdagi mahsulotlarni, jumladan, O‘zbekistondan import qilingan tovarlarni taklif etmoqda.

Supermarketda nafaqat savdo qilish, balki milliy pazandachilik an‘analarini saqlab qolish uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan. Bu yerda go’shtni halol usulda nimtalash, o‘zbek milliy taomlarini tayyorlash uchun maxsus xonalar hamda tashrif buyuruvchilar tayyor mahsulotlarni tanovul qilishi mumkin bo‘lgan umumiy ovqatlanish joylari tashkil etilgan. Mahsulotlarning yuqori sifati va talablarga mosligi turli millat vakillari bo‘lgan xaridorlarning doimiy qiziqishini ta‘minlamoqda.

Ochilish marosimi karnay-sumay ansambli va raqs jamoasining chiqishlari bilan davom etdi. Tadbırda so‘zga chiqqan jamoatchilik vakillari va mamlakatimiz diplomatlari bu kabi tashabbuslarning xorıjda O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini mustahkamlashdagi ahamiyatini alohida qayd etdi.

Iqtisodiy faollıkdan tashqari, AQSHdagi o‘zbek diasporasi vatanni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy loyihalarda ham faol ishtirok etmoqda. Jumladan, jamoatchilik faoli Otabek Mahkamov tashabbusi hamda AQSHdagi o‘zbek diasporasining faolligi bilan Nyu-Yorkda Toshkent shahrida joylashgan U. Qurbonov nomidagi Respublika bolalar ruhıy-asab kasalliklari shifoxonasiga yordam ko‘rsatish maqsadida insonparvarlik aksiyasi tashkil etildi.

Ushbu tashabbus doirasida diaspora vakillari ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida



birlashdi. Yig‘ilgan mablag‘ hisobidan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, diagnostika va reabilitatsiya muolajalarini o‘tkazish uchun jihozlar, maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilindi.

Yuborilgan uskunalar allaqachon tibbiyot muassasasiga yetkazilgan va shifokorlarning amaliy faoliyatida qo‘llanmoqda. Bu nevrologik va psixonevrologik kasalliklarga chalingan bolalarga ko‘rsatilayotgan yordam sifatini oshirish imkonini beradi.

Ushbu insonparvarlik aksiyasi O‘zbekistonning Nyu-York shahridagi bosh konsulxonasi ishtirokida amalga oshirildi va xorıjdagı vatandoshlarimizning birdamligi, ularning sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga hissa qo‘shishga samimiy intilishining yana bir namunasi bo‘ldi.

O‘zbekiston elchixonasi va bosh konsulligining rasmiy yo‘nalishi bo‘yicha ham, xalq diplomatiyasi imkoniyatlari orqali ham jadal aloqalar madaniy sohada samara bermoqda. Elchi Furqat Siddiqov AQSH Osiyo san‘ati milliy muzeyi direktori Cheyz Robinson bilan uchrashuvda shular haqida batafsil suhbat qilgan.

Uchrashuvdan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi madaniy hamkorlikning bugungi

holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashish bo‘ldi. Shu bilan birga, muzeylar sohasida qo‘shma dasturlar, akademik tashabbuslar va professional almashinuvlarni amalga oshirish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Suhbat chog‘ida Cheyz Robinson O‘zbekiston xalqini Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi bilan tabrikladi. Uning ta’kidlashicha, islom Yaqin Sharqda paydo bo‘lganiga qaramay, dinning jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim bosqich bo‘lgan ilmiy va madaniy ravnaqi ko‘p jihatdan Markaziy Osiyo, jumladan, hozirgi O‘zbekiston hududi bilan bog‘liq.

Uning fikricha, mamlakatdagi keng ko‘lamli islohotlarni madaniy va intellektual uyg‘onishning yangi bosqichi sifatida ko‘rish mumkin.

Tomonlar madaniy merosni asrab-avaylash va ommalashtirish, ikki mamlakat muzeylari o‘rtasidagi institutsional hamkorlikni mustahkamlash, qo‘shma ko‘rgazmalar, ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar almashinuvini tashkil etish masalalarini ko‘rib chiqdi.

Joriy yilda AQSH mustaqilligining 250 yilligi munosabati bilan muzey direktori elchixonaga bilan hamkorlikda o‘zbek madaniyati va mamlakatning sayyohlik salohiyatini

ommalashtirishga bag‘ishlangan dasturlarni amalga oshirishga tayyorligini bildirdi.

O‘zbekiston muzeylari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlikni yo‘lga qo‘yish istiqbollariga alohida e’tibor qaratildi. Cheyz Robinson barqaror va uzoq muddatli sheriklikni shakllantirish maqsadida respublikaning tegishli muzey muassasalari bilan o‘zaro anglashuv memorandumlarini imzolash ustuvor vazifalardan biri ekanini ta’kidladi.

Uchrashuv yakunida tomonlar “Smithsonian Magazine” jurnalining O‘zbekiston madaniyati va tarixiy merosiga bag‘ishlangan maxsus sonini tayyorlash va nashr etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga kelishib oldi.

Bundan tashqari, Cheyz Robinson elchixonaga bilan hamkorlikda O‘zbekistonga rejalashtirilgan safar haqida ma’lumot berdi. Safar doirasida yurtimizning boy madaniy merosi, tarixiy shaharlari, me’moriy obidalari, zamonaviy shaharsozlik yutuqlari bilan tanishish niyatida ekanini aytib, milliy taomlarga qiziqish bildirdi.

Mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy hamkorlik musiqa yo‘nalishida ham o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbekistonlik pianinochi Behzod Abduraimov ilk bor AQSHdagi mashhur Kennedi-Tramp nomidagi san’at markazida Amerika milliy simfonik orkestri va uning bosh dirijyori — italiyalik maestro Janandrea Nozeda bilan hamkorlikda uch kunlik konsert dasturini namoyish qildi.

Ushbu konsert dasturidan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekistonning madaniy merosi, milliy san‘ati va turizm salohiyatini AQSH jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib etish, ikki davlat o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Elchixonaga diplomatlari konsertning dastlabki kuni AQSH rasmiy doiralari hamda vatandoshlarni konsert dasturiga taklif etib, O‘zbekiston hukumati nomidan rasmiy qabul marosimini uyushtirdi.

Mazkur tadbir O‘zbekistonning ijobiy xalqaro imijini mustahkamlash, mamlakatning madaniyat va turizm salohiyatini targ‘ib etish hamda O‘zbekiston — AQSH o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

Ushbu tashabbuslarning barchasi — milliy savdoni rivojlantirish va ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlashdan tortib, madaniy almashinuvlar va musiqiy dasturlargacha — O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi hamkorlikning keng ko‘lamini namoyish etadi. Diasporaning faolligi va qo‘shma loyihalar ikki tomonlarni aloqalarni mustahkamlash, milliy merosni targ‘ib qilish va mamlakatning xorıjdagı ijobiy imijini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

“Dunyo” AA


Vashington

QISHLOQ XO‘JALIGI

FANLARI NOMZODI,

OLIY TA‘LIM A‘LOCHISI

KARIM OYBEKOVICH EGAMQULOV



Butun hayoti va mehnat faoliyatini mamlakatimiz ta’lim sohasi taraqqiyotiga bag‘ishlagan fidoyi ustoz, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, oliy ta’lim a’lochisi Karim Oybekovich Egamqulov 87 yoshida vafot etdi.

Karim Egamqulov 1939-yil 5-mayda Sirdaryo viloyatining Guliston tumanida tug‘ildi. 1964-yilda Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti)ni tugatib, shu dargohda katta laborant bo‘lib ish boshladi. So’ngra ushbu institut aspiranturasida tahsil oldi va nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1969-1972-yillarda Sirdaryo viloyati “Bilim” jamiyati mas’ul kotibi sifatida ishlab, xalqimizga ziyo va ma’rifat ulashishga munosib hissa qo‘shdi.

1972-1975-yillarda Sirdaryo davlat pedagogika instituti prorektori vazifasida samarali faoliyat yuritib, o‘zining yetakchilik salohiyatini, tashkilotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini namoyon etdi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, S. TURDIYEV, E. TURDIMOV



Mamlakatimizda barcha sohada kechayotgan yangilanishlar har bir yurttdoshimiz hayotida o‘z ifodasini topmoqda. Diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlar, yangi ochilayotgan masjid-madrasalar, qayta chiroy ochayotgan ulug‘ qadamjolar yurtimiz mo‘min-musulmonlarini cheksiz mamnun etmoqda. Bu o‘zgarishlar “Inson qadri uchun” g‘oyasini hayotga tatbiq etishni ko‘zda tutadi hamda ona vatanimizni yanada obod etish, xalqimiz farovonligini ta’minlash, tinchlik-osoyshtalikni asrash va yoshlarni komil inson etib tarbiyalash maqsadini ko‘zlaydi.



Muzaffarxon JONIYEV, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori



FAYZ-U BARAKA, AHILLIK VA SHUKRONALIK OYI



ham ana shu payg‘ambarona ta’limotning hayotdagi ifodasidir. Bu xayrli tashabbuslar orqali Ramazon nafaqat shaxsiy ibodat oyi, balki jamiyatda mehr-og‘ibat, ahillik va o‘zaro g‘amxo‘rlikni mustahkamlaydigan ulkan ma’naviy maktab sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yig‘ilishda ta’kidlanganidek, mamlakatimizda so‘nggi yillarda inson qadriini ulug‘lash, aholini ijtimoiy himoya qilish va



“RAMAZON OYI NAFSNI TARBİYALASH, QALBNI YUMSHATISH VA BOSHQALAR DARDIGA BEFARQ BO‘LMASLIKKA O‘RGATADI. SHU MA‘NODA EHTIYOJMANDLARGA YORDAM QO‘LINI CHO‘ZISH RO‘ZANING MA‘NAVİY SAMARASIDIR.

aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazganida ham chuqur ma’no va yuksak insoniylik fazilatları mujaasam. Buyuk ajdodimiz Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisi sharifda Payg‘ambar alayhissalom bunday deydilar: “Beva va miskinlarga ehson qilish uchun harakat qilgan kishi tuni bilan namoz o‘qib, kun bo‘yi ro‘za tutib yurgan kishi kabidir”. Ushbu hadis Ramazon oyining mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik ruhıyati bilan uzviy bog‘liqdır. Chunki Payg‘ambarimiz bu hadis orqali ibodat faqatgina namoz va ro‘za bilan cheklanib qolmasligini, balki insonlarga, ayniqsa, jamiyatning eng zaif qatamlari — beva-yolg‘izlar va miskinlarga mehr ko‘rsatish ham ulkan ibodat ekanini ta’kidlamogdalar. Ramazon oyi nafsni tarbiyalash, qalbni yumshatish va boshqalar dardiga befarq bo‘lmasilikka o‘rgatadi. Shu ma’noda, ehtiyojmandlarga yordam qo‘lini cho‘zish ro‘zaning ma’naviy samarasidir. Hadisda beva va miskiniga xizmat qilish jihod, tungi ibodat va doimiy ro‘zaga qiyoslanishi, islomda ijtimoiy adolat va rahm-shafqat qanday yuksak qadrlanishini yaqqol ko‘rsatadi. Bugungi kunda mamlakatimizda Ramazon oyida ehtiyojmand aholini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar qilinayotgani

Hozir bozordagi narx-navoni davlat, shaxs yoki korxonalar emas, balki sogʻlom raqobat muhitida shakllanadigan talab va taklif belgilaydi. Yaʼni biror mahsulotning qimmat yoki arzonligi oʻsha vaqtdagi qator omillar taʼsirida avtomatik shakllanadi va bu normal holat. Bunga moliyaviy tuzilmalar aralashmaydi, ular faqat narx barqarorligini taʼminlab turishga qaratilgan vositalarni ishga tushiradi. Chunki bozordagi narx-navo bevosita aholi daromadi hamda xarid qobiliyatiga mutanosib boʻlishi zarur. Aks holda, jamiyatda iqtisodiy notenglik oʻrtishi xavfi yuzaga keladi.



Bu iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasi bilan ham bogʻliq. Inflyatsiya qancha yuqori boʻlsa, ichki va tashqi bozordagi narxlar shuncha koʻtariladi. Shu bois, mamlakatimiz iqtisodiyotida inflyatsiya darajasini doimiy pasaytirib borish choralari koʻrilmoqda. Oʻtgan toʻqqiz yilda amalga oshirilgan katta islohotlar qatorida inflyatsiya darajasi "bir xonali" songa tushirilgani va aholining xarid qobiliyati ikki barobar oshgani ijobiy natija sifatida tilga olinmoqda.

2025-yilda mamlakatimizda inflyatsiya koʻrsatkichi kutilganidan ham koʻra pasaydi va yil 7,5 foizli natija bilan yakunlanadi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu boradagi ishlar faol davom ettirilishi hamda joriy yil yakunida inflyatsiya darajasini 6-6,5 foizga tushirish maqsad qilingani taʼkidlandi. 2027-yilda esa inflyatsiya uchun belgilangan target — 5 foizli koʻrsatkichga erishish ekanini aytilmoqda.

Xoʻsh, bu mamlakatimiz hayoti va iqtisodiy farovonlikka qanchalik taʼsir koʻrsatadi? Umuman, inflyatsiya darajasini pasaytirish nima uchun muhim? Biz tez-tez eshitishga odatlanganimiz, ammo mohiyatini har doim ham tushunavermaydigan "inflyatsiya" atamasi oʻzi qanday maʼnoga ega va nima uchun u salbiy hisoblanadi? Markaziy bankning Pul-kredit siyosati departamenti direktori Samigʻjon INOGʻOMOV bilan shu haqda suhbatlashdik.

— Oʻzgarishlar davlatlardan rivojlanishga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Jahon bozorlarida raqobat keskinlashuvi, texnologik taraqqiyot jadallashuvi, tabiiy resurslar cheklangani hamda inson kapitaliga talab oʻrtishi anʼanaviy iqtisodiy oʻsish modellari samaradorligiga taʼsir qilmoqda. Bunday sharoitda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlash davlat siyosati va bozor mexanizmlari oʻrtasidagi oqilona muvozanatga bogʻliq ekanini tobora yaqqol namoyon boʻlmoqda.

— Oddiy qilib aytganda, inflyatsiya — tovar va xizmatlar umumiy narxining oʻsishini anglatadigan atama. Koʻp odamlar

buni narxlarning oshishi va ularning oylikka mutanosib emasligi sifatida tushunadi. Yaʼni narx-navo baland boʻlib, odamlarning xarid qobiliyati unga mos boʻlmisligi bevosita inflyatsiya darajasi yuqoriligi bilan bogʻliq. Shuning uchun inflyatsiya salbiy xarakterga ega va u narxlarning oshib borishi bilan izohlanadi. Bu oʻz-oʻzidan iqtisodiyotdagi pul qiymatining pasayishiga olib keladi. Milliy valyutaning xarid qobiliyatini kamaytirib, kundalik hayotimizga sezilarli taʼsir koʻrsatadi.

Inflyatsiya, birinchi navbatda, aholining kam daromadga ega qatlamiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Chunki bunday qatlam asosiy daromadini isteʼmolga yoʻnaltiradi va jamgʻarish imkoniyati kam. Jamgʻarish yoki mablagʻini sarmoya sifatida kiritish esa inflyatsiyadan himoyalash vositasidir. Lekin aholining kam daromadga ega qatlamida bunday imkoniyat yoʻq. Yuqori inflyatsiya jarayonida ushbu taʼsir yanada yaqqol yuzaga chiga boshlaydi. Masalan, kam daromadli aholining xarid qobiliyati pasayib boradi va bu mamlakatda ijtimoiy notenglikni kuchaytiradi.

Ikkinchi jihat shuki, narxlar barqaror boʻlmagan sharoitda oddiy odamlar uchun ham, biznes uchun ham kelajak boʻyicha iqtisodiy qarorlar qabul qilish qiyinlashadi. Natijada investitsiya oqimi kamayadi. Qolaversa, narxlar yuqori boʻlsa, foiz stavkalari ham oshib boradi. Bozorda esa narx-navoni oshirmaslik uchun sifat yoʻli miqdordan voz kechish holatlari kuzatilishi mumkin. Ishlab chiqaruvchilar raqobat muhitida shu orqali narxni ushlab turishga harakat qiladi. Lekin bundan isteʼmolchilar zarar koʻradi.

Baʼzi davlatlarda esa narx-navo barqarorligini ushlab turishda davlat aralashuvi ortadi. Bu ham ijobiy natija bermaydi. Chunki narxlar talab va taklif asosida bozor sharoitida shakllanishi juda muhim. Aks holda, bu isteʼmolchilar xaridida notenglik, ishlab chiqaruvchilarda esa passivlikni keltirib chiqaradi. Yaʼni inflyatsiyaning yuqori



boʻlishi har qanday holatda ham iqtisodiyot uchun salbiy xususiyatga ega. Iqtisodiy oʻsishga erishish uchun narxlar barqaror, inflyatsiya darajasi past boʻlishi kerak.

Past darajadagi inflyatsiya investitsiya muhitini qoʻllab-quvvatlab turish, odamlarning isteʼmol qilish darajasini oshirishni

ragʻbatlantirishga yordam beradi. Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy vazifalaridan biri inflyatsiya darajasini doimiy pasaytirib borish orqali narx-navo barqarorligini taʼminlashga qaratilgan. Bu borada 2026-2028-yillarga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlar ishlab chiqilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotining kelgusi yillardagi rivojlanish istiqbollari, kutilayotgan xatarlar va ushbu sharoitda narxlar barqarorligini taʼminlash choralari belgilangan.

— Davlatimiz rahbarining 2019-yildagi tegishli farmonida yurtimizda inflyatsiya boʻyicha doimiy maqsad (target) 5 foiz



boʻlishi, bunga 2023-yilda erishilishi belgilangandi. Biroq ayrim sabablarga koʻra inflyatsiya boʻyicha qoʻyilgan targetga erishish muddati bir necha marotaba ortga surildi. Oxirgi maʼlumotlarga koʻra, belgilangan koʻrsatkichga 2027-yilda erishilishi aytilmoqda. Bu qanday omillar bilan bogʻliq?

AQSH, Yevropa davlatlarida inflyatsiya targeti pandemiyadan keyin 10 foizdan oshib ketdi. Vaholanki, bu mamlakatlarda oxirgi 30 yilda inflyatsiya darajasi "ikkki xonali" songa deyarli chiqmagan, 2 foiz atrofida barqaror saqlangan.

Qolaversa, pandemiyadan keyin davlatlar iqtisodiyoti tiklanishi oson kechmadi. Dunyo boʻyicha yetkazib berish zanjirlari qayta tiklanishi uchun ham vaqt kerak boʻldi. Shunga qaramay, yurtimizda qatʼiy pul-kredit siyosati davom ettirildi va 2021-yil yakunida inflyatsiya darajasi 9,9 foizga yetib, "bir xonali" songa tushirildi. Ammo yuqoridagi omillar, qolaversa, xalqaro bozorda yonilgʻi narxlar keskin oshishi sabab inflyatsiyaning yana oshishi kuzatildi va 2022-yil oxirida 12,3 foizga chiqdi. Shundan soʻng belgilangan targetga erishish choralari yanada qatʼiyilashirildi. Natijada 2023-yil oxirida 4 foizdan koʻproq pastlashga erishilib, inflyatsiya darajasi 8,8 foizga tushirildi. 2025-yil esa 7,5 foizli natija bilan yakunlandi.

Toʻgʻri, 5 foizli targetga belgilangan vaqtda yetilmadi. Ammo biz maqsadga asta-sekin yaqinlashaymiz. Turli tovarlar bozorini erkinlashtirish, ayrim tovarlar boʻyicha raqobatni kuchaytirish, ishlab chiqarish va import konsentratsiyasini kamaytirish boʻyicha aniq ishlar qilinayapti. Natijada oʻtgan yili yurtimizda koʻp yoʻnalish boʻyicha inflyatsiya koʻrsatkichi pasaygani yaqqol sezildi. Asosiy, buni odamlar ham oʻz turmushida his qilmoqda. Avvallari bozordagi narx-navoga faqat oʻsuvchi raqam sifatida qaralgan boʻlsa, bugun odamlar turli iqtisodiy taʼsirlar orqali narxlarini prognoz qilib, pasayishini bemalol taxmin qila olayapti. Ayrim mahsulotlar narxi keskin pasayishi,

bozorda talabga yarasha taklif ortgani, oʻtgan yili yurtimizda valyuta kursi soʻmga nisbatan arzonlashib, bu uzoq vaqt davom etgani ham bu boradagi katta islohotlar samarasi.

Yana bir jihatni tushunish kerak: 5 foizli target — belgilangan maqsad. Ammo inflyatsiya 5 foizga tushirildi degani uni doim shunday saqlab qolish mumkinligini anglatmaydi. Chunki inflyatsiya doimiy oʻzgarib turadigan koʻrsatkich. Odatda u bilan bogʻliq prognozlar nafaqat ichki, balki tashqi omillarga ham asoslanadi. Birgina misol: 2024-yil yurtimizda inflyatsiya darajasi 9,8 foiz bilan yakunlangan boʻlsa, 2025-yil boshidayoq koʻshni davlatlardan import qilinadigan qoramol va goʻsht eksportiga chekllovlar sabab goʻsht mahsulotlari narxida keskin oshish kuzatildi. Natijada oʻtgan yil fevralda umumiy inflyatsiya 10,1 foizgacha koʻtarildi.

Bu — tabiiy iqtisodiy jarayon. Mamlakatimiz iqtisodiyoti yildan yilga global iqtisodiyotga moslashib borayotgan sharoitda inflyatsiya darajasiga ham bevosita tashqi omillar taʼsiri sezilarli darajada ortib boradi. Ularni doim barqaror ushlab turish qiyin. Ammo Markaziy bank bu borada oʻz siyosatini yuritish va tegishli instrumentlar orqali belgilangan targetga yetish hamda uni mustahkamlash choralarini koʻrib boradi.

— 2027-yilda belgilangan 5 foizli targetga erishmaslik ehtimoli ham mavjudmi? Kutilmagan senariylarga qanday tayyorlangil koʻrilgan?

— Albatta, inflyatsiya darajasiga erishish muddatlarini belgilashda kelgusidagi kutilmalar chuqur taʼhili qilinadi. 5 foizli koʻrsatkichga erishish boʻyicha kutilmalarda ham yuzaga kelishi mumkin boʻlgan ichki va tashqi xatarlar oʻrganilib, taʼhillar asosida ssenariylar ishlab chiqildi. Ularga qarshi choralari ham belgilangan. Masalan, tashqi omillarga kelsak, global iqtisodiyotdagi noaniqliklar saqlanib qolishi, savdo hamkorlarimiz valyutasida keskin oʻzgarishlar boʻlmisligi, ichki sharoitlarda kreditlar moʻtadillashib borishi, fiksall taqchillik 3 foizdan oshmasligi, pul oʻtkazmalari 10 foiz atrofida oʻsishi kabi oʻnga yaqin xatar hisobga olingan. Shular asosida inflyatsiya darajasi joriy yil oxirida 6-6,5 foiz atrofida shakllanishi, 2027-yilda esa 5 foizli targetga yetishi kutilmoqda.

Har bir xatarining inflyatsiya va iqtisodiy barqarorlikka alohida taʼsirlarini baholaganimiz va ularga qanday javob choralari koʻrilishi ham hisobga olingan. Masalan, oltin narxi 2500 dollargacha pasaysa yoki 5500 dollargacha oshib ketsa nima qilish mumkinligi boʻyicha ham taʼhillar oʻtkazilgan. Bunda oʻsish prognozi ehtimoli yuqori. Yaʼni oltin narxi jahon bozorida yangi rekord darajaga yetdi. Agar oltin narxi shu tariqa oshishda davom etsa, bu ijobiy shok holati hisoblanadi. Buning hisobiga 5 foizli targetga 2027-yil oxirida emas, oʻrtalarida yetish ham mumkin. Chunki birgina shu omil iqtisodiy oʻsishning tezlashishiga hissa qoʻshadi.

Qolaversa, mamlakatimiz dunyo boʻyicha oltin ishlab chiqaruvchi eng yirik davlatlardan biri boʻlib, eksport hisobiga tushumlar ham, talab ham oshib bormoqda. Natijada yurtimizda oʻtgan

yildan milliy valyuta kursi mustahkamlanib, qadri oshib borayotgani ham bevosita inflyatsiya darajasini pasaytirishga taʼsir koʻrsatadi. Biroq bu odamlar oʻylaganidek almashuv kursini Markaziy bank belgilaydi degani emas. Shu masalada ham koʻp savollar beriladi. Bir jihatni aniq tushunish kerak: Markaziy bank almashuv kursi boʻyicha maqsadli koʻrsatkich belgilamaydi va kurs shakllanishiga aralashmaydi. Yurtimizda 2017-yildan boshlab valyuta kursi erkinlashtirish va uni bozor tamoyillari belgilaydi. Kurs ichki valyuta bozorida shu joyning talab va taklifi asosida shakllanadi. Oʻtgan yilgi taʼhillarga koʻra, qulay makroiqtisodiy sharoitlar taʼsirida xorijiy valyuta bozorida talabdan koʻra taklif yuqori boʻldi. Bu oltin narxining keskin oshib borayotgani bilan ham bogʻliq.

— Inflyatsiya haqida gap borsa, Markaziy bank belgilaydigan asosiy stavka masalasi ham oʻrtaga chiqadi. 2027-yilda belgilangan 5 foizli targetga yetisha, Markaziy bank asosiy stavkani qanchalik pasaytirishi mumkin? Bu bevosita kreditlar foizi bilan ham bogʻliq boʻlgani holda odamlar uchun qiziq.

— Inflyatsiya tushishi deganda odamlar, avvalo, asosiy stavka va unga bogʻliq holda kreditlar foizining tushishini kutadi. Aslida ham ular oʻzaro bogʻliq. Bu boradagi kutilmalarni aytishdan oldin asosiy stavkaning oʻziga toʻxtalsak. Chunki koʻpchilik uning mohiyatini tushunmaydi.

Gap shundaki, mamlakatimiz moliya tizimida Markaziy bank asosiy stavkasi degan tushuncha bor. Markaziy bank uni va pul bozorida qisqa muddatli pulning narxini belgilaydi. Oddiy qilib aytganda, asosiy stavka — soʻmning narxi. Agar inflyatsiya yuqori boʻlsa, soʻm koʻp va qadri past boʻladi degani. Masalan, yuqori inflyatsiya xavfi tugʻilsa, Markaziy bank asosiy stavkani oshiradi yoki aksincha, inflyatsiya targetdan pasaysa, asosiy stavkani tushiradi. Bozor stavkasini Markaziy bank belgilangan darajaga yaqinlashtirish uchun oʻz operatsiyalarini asosiy stavkaga bogʻlaydi. Masalan, tijorat banklari ajratadigan imtiyozli kreditlarning foiz stavkasi bevosita asosiy stavkaga bogʻliq. Yaʼni stavka tushishi yoki koʻtarilishi imtiyozli kreditlar foizining pasayishi yoki oshishiga taʼsir qiladi. Shuningdek, tijoriy kreditlar foizi ham Markaziy banking foiz stavkasidan kelib chiqib belgilanadi.

Asosiy stavka darajasi muayyan vaqtda qator omillar hisobiga oʻzgarib turadi hamda Markaziy bank yil davomida 8 marta asosiy stavkani koʻrib chiqadi. Jarayonda barcha omil hisobga olinadi va chuqur taʼhili qilinadi. Xususan, asosiy stavka 2017-yil iyun oxirida — valyuta liberallashuviga tayyorgarlik doirasida 9 foizdan 14 foizgacha koʻtarilgan va 2024-yil iyuligacha 14-17 foiz oraliqida shakllangan. 2024-yil iyulida ushbu stavka 0,5 foiz pasaytirilib, yillik 13,5 foiz darajasida belgilandi. Keyinroq yil 14 foizga koʻtarildi. 2025-yilda asosiy stavka 14 foiz darajasida oʻzgarishsiz saqlab qolindi. Toʻgʻri, 2025-yilda inflyatsiya darajasi 7,5 foizgacha pasaydi. Lekin Markaziy bank asosiy stavkani pasaytirishga shoshilmayapti. Chunki joriy inflyatsiya darajasi hali belgilangan 5 foizli targetga yetib kelgani yoʻq. Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotda inflyatsiyani oshiruvchi xatarlar hali ham saqlanib turibdi.

Bugun aholi va biznes uchun banklar ajratayotgan kreditlar foizi haqiqatan yuqori — 20 foiz. Buning asosiy sababi, resurs narxi, yaʼni ushbu kreditlarning manbai boʻlgan depozitlarning qimmatligida. Inflyatsion targetga erishilgach, Markaziy bank foiz stavkalarini neytral darajaga olib kelishi mumkin. Taʼhillarga koʻra, Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun neytral real foiz stavkasi bugun 4-5 foiz atrofida baholangan. Bunda 5 foizli targetga neytral 4-5 foizni qoʻshsak, 9-10 foiz nominal stavka hosil boʻladi. Bu asosiy stavkani 9-10 foizgacha tushirish imkonini paydo boʻladi degani.

Ammo inflyatsiya kutilmalarining pasayishi muayyan muddat talab etadi. Yaʼni boshqa foizlarning birdan tushishi kuzatilmaydi, ular inflyatsiya bilan birga asta-sekin pasayadi. Oʻtgan yili aholi buni amaliyotda sezga boshladi. Narx-navo barqarorligi real sharoitda kuzatilayotgani hisobiga aholi kutilmalari ham pasayib borayotgani ijobiy hol.

“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

Nuqtayi nazar

Hozirgi kunda yuz berayotgan muhim oʻzgarishlar davlatlardan rivojlanishga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Jahon bozorlarida raqobat keskinlashuvi, texnologik taraqqiyot jadallashuvi, tabiiy resurslar cheklangani hamda inson kapitaliga talab oʻrtishi anʼanaviy iqtisodiy oʻsish modellari samaradorligiga taʼsir qilmoqda. Bunday sharoitda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlash davlat siyosati va bozor mexanizmlari oʻrtasidagi oqilona muvozanatga bogʻliq ekanini tobora yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida mamlakat iqtisodiyotini texnologik va innovatsion rivojlanish modeliga oʻtkazish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida belgilab berildi. Ushbu hujjat strategik ahamiyatga ega boʻlib, iqtisodiy islohotlarning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvni aks ettiradi.

Bugungi kundajahontajribasikoʻrsatmoqdaki, faqat xomashyo eksportiga tayangan iqtisodiy model uzoq muddatli barqarorlikni taʼminlay olmaydi. Aksincha, yuqori qoʻshilgan qiymat yaratadigan, innovatsiya va texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotlar raqobatda ustunlikka ega boʻlmoqda. Shu bois, Oʻzbekistonda energiya tejankor, yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini va xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati iqtisodiy oʻsish bilan bir qatorda resurslardan oqilona foydalanishni ham koʻzda tutadi.

Yangi Oʻzbekistonda investitsiya alohida va muhim oʻrin tutadi. Davlat investitsiyalarni nafaqat moliyaviy resurs, balki zamonaviy texnologiyalar, bilim va boshqaruv tajribasini jalb etish vositasi sifatida baholamoqda. Shu sababli xorijiy investitsiya jalb qilishda ularning milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga, eksport salohiyatini kengaytirishga va mahalliy kadrlar tayyorlashga qoʻshadigan hissasiga asosiy mezon sifatida qaramoqda.

Bu jarayonda davlat bozor munosabatlarning toʻgʻridan toʻgʻri ishtirokchisi emas, balki huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy sharoit yaratuvchi subyekt sifatida namoyon boʻladi. Yer munosabatlari bozor tamoyillari asosida tartibga solish, maʼmuriy tartib-taomillarni soddalashtirish, elektron davlat xizmatlarini joriy etish kabi choralari davlat boshqaruvining

QOʻSHILGAN QIYMATGA TAYANUVCHI

IQTISODIY MODEL



bozor iqtisodiyotiga moslashgan shaklini ifodalaydi.

Erkin iqtisodiy zonalarni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish orqali mamlakatni global ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiya qilish maqsadi koʻzlanmoqda. Bunda davlatning asosiy vazifasi investorlar uchun huquqiy barqarorlik va kafolatlarni taʼminlash, qonunchilikning

shaffof va prognoz qilish mumkin boʻlishini taʼminlashdan iborat.

Iqtisodiy boshqaruv tizimini qayta koʻrib chiqish, sohaviy boshqaruv organlari faoliyatini zamonaviy talablarga moslashtirish esa davlatning oʻzini isloh qilishga tayyorligini koʻrsatadi. Bu holat bozor iqtisodiyotining muhim belgilaridan biri hisoblanadi.



Sanoatni raqamlashtirish, ilmiy, huquqiy va iqtisodiy yechimlarni joriy etish, robototexnika va sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu borada davlat xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish, texnologiya va bilimlar transferini ragʻbatlantirish orqali katalizator

vazifasini bajaradi, bozordagi samaradorlik esa erkin raqobat orqali shakllanadi.

Raqamli iqtisodiyot, startaplar va innovatsion ekotizimni rivojlantirish davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlikning yana bir muhim yoʻnalishidir. Venchur moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, fintex va sunʼiy intellekt sohaslarida maxsus institutlarni shakllantirish orqali yangi bozor segmentlari vujudga kelmogʻa. Taʼlim muassasalari, yoshlar va xususiy sektor oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik esa innovatsion iqtisodiyotning ijtimoiy poydevorini mustahkamlaydi.

Ilm-fan va yuqori texnologiyalarga investitsiya kiritish davlatning uzoq muddatli strategik manfaatlariga xizmat qiladi. Sunʼiy intellekt, maʼlumotlar markazlari, yuqori hisoblash quvvatiga ega tizimlar, shuningdek, kosmik tadqiqotlarga oid tashabbuslar milliy iqtisodiyotni yangi texnologik pogʻonaga olib chiqishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, yangi iqtisodiy siyosatning mohiyati davlat va bozor oʻrtasidagi oqilona muvozanatni taʼminlashdan iborat. Davlat strategik yoʻnalishlarni belgilaydi, huquqiy va institutsional asoslarni yaratadi, ijtimoiy adolatlarni kafolatlaydi. Bozor esa raqobat, innovatsiya va samaradorlik orqali iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydi. Aynan shu muvozanat yangi Oʻzbekistondan barqaror va raqobatbardosh taraqqiyotning huquqiy-iqtisodiy poydevorini belgilab beradi.

Bahromjon TOPILDIYEV, yuridik fanlar doktori, professor

Mulohaza

Taraqqiyot jarayoni jamiyat hayotiga tobora chuqur kirib borar ekan, inson omili, tafakkur sifati, ma’naviy mezonlar masalasining dolzarbligi har qachongidan oshaveradi. Texnologiyalar sur’ati kuchaygan, axborot oqimi kengaygan, ijtimoiy makon murakkablashgan bir sharoitda jamiyatning barqaror rivoji iqtisodiy ko’rsatkichlar bilan bir qatorda insonning ichki dunyosi, fikrlash madaniyati, mas’uliyat hissi bilan chambarchas bog’liq. Bugungi islohotlar markazida aynan inson, uning tafakkuri, ma’naviy tayanchi va intellektual salohiyati turgani ham buning tasdiq’idir.

YOPIQ AKADEMIK MAKONDAN

OCHIQ INTELEKTUAL

MAYDONGA AYLANAYOTGAN TIZIM

Gulnoza JO‘RAYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti birinchi
prorektori, filologiya fanlari doktori,
professor

Zamonaviy dunyoda bilim olish jarayoni oddiy axborot yig‘ish bilan cheklanib qolmay, shaxsning dunyoni anglash usuli, hayotga munosabati, ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiruvchi omil ekan ayon. Shu tufayli ta’lim muassasalariga faqat kasbiy ko’nikmalar beradigan maskan emas, balki fikrlovchi, tahlil qiluvchi, mas’uliyatli avlodni tarbiyalaydigan muhim ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda. Ta’lim-tarbiya masalasi davlat siyosati, jamoatchilik fikri, ilmiy doiralar diqqat markazida turibdi.

Mazkur mavzu yuzasidan so‘z yuritganda, avvalo, keyingi yillarda mamlakatimiz ta’lim tizimidagi tubdan yangilanish jarayonlariga to‘xtalib o‘tish kerak. Oliy ta’lim muassasalarining ko‘payishi, qamrovi oshishi, yangi ta’lim dasturlari joriy etilishi, xalqaro standartlarga moslashuv siyosati bu yo‘nalishdagi islohotlarning real natijalarini



tarmoqlar, global axborot maydoni, tezkor muloqot vositalari yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, fikrlash uslubiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot olish imkoniyatining kengayishi bilimga yo‘l ochdi. Shu bilan birga, ongli tanlash, axborotni saralash, uni tahlil etish mas’uliyatini keskin oshirdi.

Kanadalik faylasuf va kommunikatsiya nazariyotchisi Gerbert Marshall “Vosita xabarning o‘zidan muhimroq” degan mashhur g‘oyani ilgari surgan edi. Uning fikricha,

“

**BILIM TAFAKKUR BILAN BOYIGANDA,
TAFAKKUR MA’NAVIYAT BILAN
MUSTAHKAMLANGANDA, MA’NAVIYAT ESA
IJTIMOIY MAS’ULIYAT BILAN QO‘LLAB-
QUVVATLANGANDA JAMIYAT BARQAROR
RIVOJLANISH YO‘LIGA KIRADI.**



ko‘rsatmoqda. Xususan, oxirgi yillarda oliy ta’limga qamrov bir necha barobar oshdi. Yangi universitetlar, nufuzli xorijiy oliyog‘hlar filiallari, nodavlat ta’lim muassasalari faoliyati kengaydi. Ta’lim siyosatida kompetensiyaga asoslangan yondashuv, amaliy bilimlarni kuchaytirish, talabanning shaxsiy rivojiga yo‘naltirilgan model ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida o‘quv dasturlarining qayta ko‘rib chiqilishi, kredit-modul tizimining joriy etilishi, xalqaro reytinglarga moslashish siyosati ta’limni yopiq akademik makondan ochiq intellektual maydonga aylantirishga xizmat qilaypti.

Globallashuv sharoitidamilliy ong, madaniy xotira, til va tafakkur masalalari yangi sinovlar bilan yuzlashmoqda. Bu jarayonda gumanitar fanlar, xususan, til va adabiyot tafakkur madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Mashhur nemis mutafakkiri Vilgelm Gumboldt tilni “xalq ruhi va tafakkurining tirik ifodasi” sifatida baholagani bejiz emas. Uning fikricha, til muloqot vositasi vazifasini bajarish bilan birga insonning borliqni qanday ko‘rishi va tushunishini ham belgilab beradi. Til va adabiyot fanlari milliy o‘zlikni anglashda ham muhim o‘ringa ega. Ona tilini chuqur bilgan, adabiy merosni anglagan yosh avlod xalqining tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan qaraydi.

Bugungi yoshlar ongining shakllanishi avvalgi avlodlar tajribasidan tubdan farq qiladi. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy



imkoniyati kengaymoqda. Shu bilan birga, virtual muhit yolg‘on axborot, manipulyativ kontent, zararli g‘oyalar maydoni hamdir. Bunday sharoitda mediasavodxonlik, axborot xavfsizligi, tanqidiy tafakkur asosiy hayotiy kompetensiyalardan biriga aylangan.

Shuningdek, ta’lim muhitida ma’naviyat masalasi muhim ahamiyatga ega. O‘zaro hurmat, sog‘lom tanqid, ochiq muloqot, fikrlar xilma-xilligiga bag‘rikeng munosabat hukmron bo‘lgan muhitda shaxs erkin rivojlanadi. Aksincha, rasmiyatchilik, befarqlik, formalik ustun bo‘lgan joyda ijodiy tafakkur so‘nadi, tashabbus susayadi. Shu bois, ta’lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish tarbiyaviy ishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib qolmoqda.

Talabalar bilan ishlashda individual yondashuvning o‘rni beqiyos. Har bir yoshning qiziqishi, salohiyati, hayotiy tajribasi turlicha. Ushbu farqlarni inobatga olgan holda tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayoni shaxs rivojini ta’minlaydi. Mentorlik, maslahat tizimi, ilmiy va ijodiy to‘garaklar ana shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Bunday mexanizmlar yoshlarning o‘z imkoniyatini anglashi, maqsadlarini aniq belgilashiga yordam beradi. Tarbiyaviy mexanizmlarning samaradorligi esa ko‘p jihatdan ta’lim muassasasining ichki tartibi bilan bog‘liq. Rahbarlik uslubii, boshqaruvdagi ochiqlik, jamoa bilan muloqot, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash siyosati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ta’lim muassasasi nafaqat bilim maskani, balki ijtimoiy yetuklik maktabiga aylanadi.

Mehnat bozoriga yiliga 300 ming oliy ma’lumotli tashkil etish, ularni zararli axborot qo‘llab-quvvatlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish, ilm-fan, innovatsiya va tadbirkorlikka jalb etish orqali milliy taraqqiyotning mustahkam poydevorini yaratish zarur. Davlatimiz rahbarining yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish, xorijiy tillarni puxta egallashi, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishi, ilmiy tadqiqot faoliyatida ishtirok etishi masalalariga alohida urg‘u berishi zamirida ham chuqur ma’no-mazmun mujassam. Zero, ushbu talablar ta’lim tizimida ochiqlik, innovatsion yondashuv, akademik erkinlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muhitini shakllantiradi.

Shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni zararli axborot oqimlaridan himoya qilish, ma’naviy immunitetini mustahkamlash ham muhim. Bu vazifalar ta’lim muassasalari faoliyatida tarbiyaviy ishlar, madaniy-ma’rifiy loyihalar, intellektual klublar va munozara maydonlarini kengaytirishni talab qiladi. Aynan ana shunday ochiq muloqot muhiti yoshlarning mustaqil fikrlashini, o‘z pozitsiyasini asoslab bera olish ko‘nikmasini oshiradi.

Bilim tafakkur bilan boyiganda, tafakkur ma’naviyat bilan mustahkamlanganda, ma’naviyat esa ijtimoiy mas’uliyat bilan qo‘llab-quvvatlanganda jamiyat barqaror rivojlanish yo‘liga kiradi. Bugungi yoshlar oldida ochilayotgan imkoniyatlar keng, talablar esa yuqori. Ular nafaqat zamonaviy kasblarni egallashi, balki jamiyat taqdiriga daxldorlik hissin ham o‘zida shakllantirishi zarur. Shu jarayonda ta’lim muassasalari zimmasiga yetakchi ijtimoiy institut sifatida alohida mas’uliyat yuklanadi. Bu mas’uliyat bilim berish bilan birga ongni tarbiyalash, qadriyatlarini asrash, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni qamrab oladi.



Salohiyat sohiblari

JAHONIY ILM BILAN
XAVFSIZ HAYOT SARI

Og‘ir kasalliklarni davolash, immun tizimini mustahkamlash hamda xavfsiz va samarali dori-darmon yaratish bugunning dolzarb masalalari. Ularning yechimi zamonaviy biotexnologiya, farmatsevtika va biotibbiyot fanlari rivojiga bog‘liq. Ayniqsa, yangi avlod dorilarini yaratish bugun global miqyosda ustuvor ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda.

Milliy farmatsevtika
sanoati rivoji yo‘lida

Hayotbek Abdullayev uch yil avval Toshkent vaktsina va zardoblar ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy ishlab chiqarish biologik nazorat bo‘limida faoliyat boshlagan. Serpentariy (zaharli ilonlarni saqlash va ulardan biologik faol moddalar (zahar) ajratib olish bilan shug‘ullanuvchi bo‘lim) mudiri sifatida ishlaganida, zaharli ilonlardan ajratib olingan biologik faol moddalarning biokimyoviy, toksikologik tahlillari va zaharning biologik faolligini o‘rgangan. 2024-2025-yillarda institutning biotexnologiya laboratoriyasida ilmiy xodim vazifasida xizmat qildi. Ayni paytda bakteriologiya laboratoriyasi katta ilmiy xodimi bo‘lgan Hayotbek farmatsevtik biotexnologiya va biomuhandislik hamda bakteriologiya yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirgan holda ilmiy tadqiqot olib bormoqda.

U mahalliy ilonlar zahridan saratonga qarshi biologik faol komponentlarni ajratib olish va ular asosida targetlangan dori-darmon yaratish asosiy ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri ekanini alohida ta’kidladi. Zero, ilon zahri murakkab biologik aralashma bo‘lib, tarkibida ko‘plab biologik faol molekullar mavjud. Ularning ba’zilari o‘zma-hujayralariga selektiv ta’sir ko‘rsatish, hujayra o‘limini faollashtirish xususiyatiga egaligi bilan qimmatli. Hayotbek, avvalo, zahar namunalarni yig‘ish haqida tushuncha berdi.

Jarayon biotetik talablar, biologik xavfsizlik me’yorlari hamda ekologik barqarorlik tamoyillari asosida kechadi. Olingan namunalar standartlashtirilgan sharoitda saqlanadi.

Dastlabki bosqichda zahar tarkibidagi umumiy fermentativ faollik, proteolitik xususiyatlar kabi ko‘rsatkichlar kompleks baholandi.

Biologik faol komponentlarning molekulyar darajadagi xususiyatlarini o‘rganish, farmatsevtik shakllarini yaratish hamda xavfsizlik profilini shakllantirish orqali biologik dorilarning yangi avlodini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratilmoqda. Qahramonimizning tadqiqotlari nafaqat onkologik kasalliklarni davolashda yangi yondashuvlarga erishish, balki tabiiy biologik resurslardan samarali foydalanish, milliy biotexnologiya salohiyatini oshirish hamda innovatsion farmatsevtika yo‘nalishlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bunday ilmiy izlanishlar kelajakda xavfsiz va samarali biologik dori yaratishga zamin bo‘lishi mumkin.

Yosh olimning ilmiy faoliyatida dori-darmon xavfsizligi alohida o‘rin tutadi. Bu borada u Xitoyda stajirovka o‘tab, amaliy bilimlarni o‘zlashtirgan. Ortirilgan tajriba keyinchalik ilmiy ishlanmalarda xavfsizlik profilini shakllantirish, biologik preparatlarni baholash hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hujjatlarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yuqorida aytganimizdek, hozirgi kunda yosh olim bakteriologiya laboratoriyasida patogen mikroorganizmlarni identifikatsiyalash, antibiotikka chidamlilik mexanizmlarini o‘rganish, diagnostik test tizimlarini ishlab chiqish ustida



ishlayapti. Biotexnologiya, farmatsevtika, mikrobiologiya va biomuhandislik sohalarini integratsiya qilgan ilmiy tadqiqotlari biologik dori-darmonlarning yangi avlodini yaratish, onkologik kasalliklarni davolash, immun tizimini mustahkamlash hamda biologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan.

Ilmiy faoliyat bilan bir qatorda u ilmiy innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish, yangi farmatsevtik texnologiyalar ishlab chiqish hamda milliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga hissa qo‘shishni maqsad qilgan. Onkologiyada yangi targetlangan biologik preparatlar yaratish, biologik faol tabiiy komponentlar bankini shakllantirish, immunomodulyator vositalar yaratish shular jumlasidan.


Ilmiy ishlanmalardan
real mahsulotlarga

— Yevropadagi uchta nufuzli oliy ta’lim muassasasida tahsil olib, zamonaviy biotexnologiya, molekulyar va sintetik biologiya yo‘nalishlari bo‘yicha chuqur bilim hamda amaliy tajriba orttirdim, — deydi yana bir yosh olim Ulug‘bek Mavlonov.

O‘zbekiston Milliy universitetining biologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomlagan qahramonimizni “Erasmus Mundus” dasturi jahoniy ilmlar sari yetakladi. Fransiya, Estoniya, Germaniya kabi davlatlarda ilmiy salohiyati o‘tdi. Chet ellarda olgan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, O‘zbekistonda ilm-fan rivojiga hissa qo‘shish maqsadida o‘tgan yili vatanga qaytdi. Ulug‘bek ham Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi tavsiyasi asosida Toshkent vaktsina va zardoblar ilmiy-tadqiqot institutida tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritaypti. Bugungi kunda biotexnologiya mamlakatning sog‘liqni saqlash xavfsizligi hamda iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutishini ta’kidlar ekan, u sohada yechimini kutayotgan muammolarni ham aytib o‘tdi. Xususan, zamonaviy biologik dori importga qaramlik, ularning yuqori narxi yosh izlanuvchini ko‘p o‘ylantiradi. U ayrim ilg‘or texnologiyalarning mahalliy lashtirilmagani, shuningdek, ilmiy ishlanmalar bilan sanoat o‘rtasidagi uzilishni biotexnologiya rivojini sekinlashtirayotgan asosiy omillardan deb biladi. Zero, ayni omillar sabab ko‘plab istiqbolli ilmiy g‘oyalar amaliy mahsulot darajasiga yeta olmayapti.

— Ilmiy faoliyatim aynan ushbu muammolarga yechim topishga qaratilgan, buni ikki asosiy yo‘nalishda olib

boryapman, — deydi Ulug‘bek. — “Birinchii yo‘nalish — mahalliy xomashyo va bioreurslar asosida bioaktiv moddalarni aniqlash va chuqur o‘rganish. — O‘zbekiston boy va xilma-xil biologik resurslarga ega bo‘lib, u hali to‘liq o‘rganilmagan katta ilmiy va amaliy salohiyatni o‘zida mujassam etadi. Shu bois, mahalliy o‘simliklar, mikroorganizmlar



va boshqa tabiiy manbalardan biologik faol birkimlarni aniqlash, ularning farmatsevtik va tibbiy qo‘llanilish imkoniyatlarini tadqiq etish ustida izlanishlar qilyapman. Bu yondashuv import o‘rmini bosuvchi, iqtisodiy jihatdan maqbul va mahalliy sharoitga mos biotexnologik mahsulotlar yaratish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi yo‘nalish zamonaviy vaktsina texnologiyalari, jumladan, nuklein kislotalar asosidagi vaktsinalarni ishlab chiqish va takomillashtirish bilan bog‘liq. Bugungi kunda bunday vaktsinalar yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda eng ilg‘or va istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda hamkasblarim bilan birgalikda

vaktsinalarning samaradorligi, xavfsizligi va qisqa muddatda ishlab chiqilishini ta’minlovchi yangi texnologik yondashuvlar ustida ishlayapman.

Yoshlar bejiz zamonaviy texnologiyalarga intilmaydi. Bu orqali ular o‘zi tanlagan soha yutuqlarini ko‘ra oladi. Ayni paytda Ulug‘bek ishtirok etayotgan sil kasalligiga qarshi zamonaviy vaktsinalarni ishlab chiqish texnologiyasi ham tezkor, xavfsiz va kelajakda turli kasalliklarga qarshi samarali bo‘lishi mumkin. Uning mahalliy ishlab chiqarish yo‘lida boshlagan ezuq ishi mamlakatimizning farmatsevtika sohasidagi mustaqilligini ta’minlash va importga qaramlikni kamaytirishga katta hissa qo‘shadi.

Tadqiqotlar yuzasidan xalqaro hamkorliklar ham ibratga arziydi. Xususan, Janubiy Koreya, Fransiya, Italiya va boshqa rivojlangan davlatlardagi yetakchi ilmiy markazlar hamda zamonaviy laboratoriyalar bilan aloqalar bosqichma-bosqich shakllantirilyapti. Bu esa ilg‘or tahlil usullari, yuqori texnologik platformalar va xalqaro ilmiy tajribadan samarali foydalanish va ilmiy ishlarni xalqaro darajaga olib chiqishga yordam beradi.

Yosh innovatsioning asosiy maqsadi — biotexnologiya sohasida O‘zbekistonda zamonaviy, raqobatbardosh va amaliy natijaga yo‘naltirilgan ilmiy maktab shakllanishiga hissa qo‘shish. Ya’ni ilmiy ishlanmalarni real mahsulot darajasiga olib chiqish hamda mamlakatimizning ilmiy-texnologik salohiyatini mustahkamlash.

Har ikki yosh olim bilan suhbatimiz odatdagilaridan qiyin kechdi. Zero, ular tanlagan yo‘lining o‘zi-da mashagqatli. Kutilayotgan natija aytishga arziarli, borilajak manzillar yorug‘. Shuning o‘zi ilm-fan borasida dunyoviy miqyosda faxrlanadigan yoshlarimiz borligiga yana bir ishora.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



6
2026-yil 18-fevral, 33-son

Qish faslining so'nggi oyi — fevral keyingi yillarda yurtimizda adabiyot oyligi sifatida nishonlab kelinmoqda. Dunyoda bayramlar, turli anjumanlar ko'p. Shular orasida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud sanasi bilan bog'liq tantanalar nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda keng miqyosda nishonlanadi.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasida Sohbiqiron Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk bobolarimizning qutlug' tavallud ayyomini yuksak darajada, har tomonlama munosib o'tkazishda mahallalar, ta'lim-tarbiya maskanlari, mehnat jamoalari, ziyolilar, mamlakatimizning xorijdagi elchixonalari, umuman, butun xalqimiz faol ishtirok etishi zarurligini ta'kidlagan edi. Bu borada "Vatandoshlar" jamoat fondi ham ibratli ishlarni qilmoqda.

— Prezidentimizning adabiyot va san'atni, madaniyat va kitobxonlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur merosini yosh avlodga bekamu ko'st yetkazish borasidagi siyosati ijtimoiy hayotimizda muhim ahamiyat kasb etyapti, — deydi "Vatandoshlar" jamoat fondi boshqaruvi raisi o'rinbosari Boliddin Sanayev. — Alisher Navoiyning 585 yilligi, Mirzo Boburning



543-yilligini keng nishonlash maqsadida fondimiz tomonidan O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari bilan hamkorlikda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Janubiy Koreya, AQSH, Yevropa mamlakatlarida madaniy-adabiy tadbirlar uyushtirilmoqda. Bu tadbirlarda shoir, yozuvchilar, adabiyotshunos va tarixchi olimlar, san'atkorlar, madaniyat sohasi vakillari faol ishtirok etyapti. Bugun turli davlatlarda istiqomat qilayotgan millatdosh va vatandoshlarimiz orasida ona tilimiz, madaniyatimiz, urf-odatlarimiz, san'atimiz, qadriyat va an'analарimizni yoyish, targ'ib etish hamda vatandoshlarimizning keyingi avlodlari ham ularidan to'la-to'kis bahramand bo'la olishini ta'minlash fondimizning asosiy vazifasiga kiradi.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning haykali Tokio, Shanxay, Vashington, Moskva, Minsk, Boku, Mozori Sharif, O'sh, Dushanbe, Seul singili yirik shaharlarda qad rostlagan edi. 2023-yili Qozog'iston poytaxti Ostonada ham o'zbek xalqining buyuk farzandi, shoir va mutafakkir Alisher Navoiyga muhtasham haykal o'rnatildi. Haykalling ochilish marosimida ishtirok etgan va nutq so'zlagan davlatimiz rahbari: "Ishonchim komilki, Alisher Navoiy haykali ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va qardoshlik rishtalarining yana bir yorqin ramziga aylanadi, uning merosi esa yana ko'plab avlodlarni buyuk yutuqlarga ilhomlantiradi", degan edi.

— O'zbek-qozog' adabiy aloqalarining ildizi chuqur, — deydi O'zbekistonning Qozog'iston Respublikasidagi elchixonasi vakili Bahrom

Qozog' mumtoz adabiyotining yorqin vakili **Abay Qo'nonboyev** **Alisher Navoiy**ni ustoz deb bilgan. G'afur G'ulom, Mirtemir, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov davrida qaror topgan adabiy aloqalar bugun ham shukuh bilan davom etmoqda.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik


NON VA TUZ KABI ULUG'

Asrlar o'tdi va yana o'tadi. Dunyo g'azal mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiy ijodini o'rganadi, o'rganaveradi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur merosiga qiziqadi, unga intiladi, intilaveradi.

Chunki Alisher Navoiy turkiy adabiyotni yulduzlar yoniga olib chiqdi, turkiy tili adabiyotning mukammal andozasini yaratdi, Hazratdan keyin turkiy tilda adabiyot insho qilish rasm bo'ldi, boshqa turkigo'y shoirlar ham o'z ona tilida dadil yo'zlashladi. Mirzo Boburning nafis va mardona ruboiy hamda g'azallari, "Boburnoma", yana boshqa asarlari beqiyos jozibas, badiiy va ijodiy qimmatini bilan jahon ahlini maftun etib keladi.



Salim ASHUR,
Yozuvchilar uyushmasi raisi
maslahatchisi, O'zbekistonda
xizmat ko'rsatgan jurnalist



Berdiyev. — Qozog' mumtoz adabiyotining yorqin vakili Abay Qo'nonboyev Alisher Navoiyning ustoz deb bilgan. G'afur G'ulom, Mirtemir, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov davrida qaror topgan adabiy aloqalar bugun ham shukuh bilan davom etmoqda.

2021-yili Qozog'iston davlat mukofoti sovrindori, tanliqli qozog' shoiri Nasipbek Aytuli Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" hamda "Saddi Iskandariy" dostonlarini qozog'

xalqlarining uch buyuk shoiri — Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abay Qo'nonboyev adabiy merosining umumbashariy ahamiyati to'g'risida gapirdi. Nafaqat turkiy davrida qaror topgan adabiy aloqalar bugun ham shukuh bilan davom etmoqda.

Ushbu adabiy kecha yosh avlod qalbidagi kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash yo'lidagi muhim ahamiyat kasb etdi. Maktab kutubxonasiga Toshkentdan olib borilgan yangi badiiy kitoblar, musiqa asboblari hamda o'zbek milliy liboslari sovg'a qilindi. Shuningdek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida o'zbek tili bilimdonlari faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlandi. Maktab direktori Meruyet Amirovaning ta'kidlashicha, maktabda o'zbek va qozog' tillarida ta'lim beriladi. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha muntazam tanlovlar o'tkaziladi. G'oliblar oliy o'quv yurtlariga imtiyoz va grantlar asosida o'qishga qabul qilinadi.

Chimkent shahrida joylashgan Alisher Navoiy nomidagi 11-maktabda o'tgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir shoir byustiga gul qo'yish bilan boshlandi. Shu yerda ulug' ma'rifatparvar jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlarining eng ulug'i maktabdir" degan hikmati so'ziga yana bir karra ishonch hosil qildik. Chunki maktab eng ilg'or zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan.

Ta'lim muassasasidagi tadbirda Toshkentdan borgan san'at ustalari, mahalliy san'atkorlar, shoirlar va adiblar, vatandoshlarimiz, mahalliy aholi hamda O'zbekistonning Qozog'istondagi elchixonasi hamda bosh konsulxona vakillari ishtirok etdi. O'quvchilar tomonidan "Xamsa" dostonlari hamda "Boburnoma" asosida tayyorlangan sahna ko'rinishlari namoyish etilgani to'planganlarning olqishiga sazovor bo'ldi. 23 ta qozog', 24 ta o'zbek sinfi mavjud bo'lgan mazkur maktab direktori Gulzina Nosir qizi maktabda o'zbek tili va adabiyoti fanlarining o'qitilishi, adabiyot to'garagining faoliyati, aksariyat o'qituvchilarning Toshkentdagi oliy ta'lim muassasalarida o'qigani haqida so'zlab berdi. Maktabning o'quvchi va o'qituvchilar jamoasiga Toshkentdan maxsus olib borilgan badiiy kitoblar, milliy kiyimlar, o'zbek cholg'u asboblari sovg'a qilindi.

— Hozir Turkiston viloyatida Alisher Navoiy nomi bilan atalgan beshta maktab, muzey va boshqa muassasalar bor, — deydi maktabning o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Begmat Turdiqulov. — Har yili ulug' shoirning tavallud kuni arafasida navoiyxonlik anjumanlari, mushoiralar o'tkazib kelinadi.

Shu mavzudagi subhlati Qozog'iston Respublikasi "Do'stlik" hamjamiyati raisi Abdulla Ismatullayev davom ettirdi:

— Alisher Navoiy va Mirzo Bobur tavalludi

munosabati bilan qadimdan Qozog'iston zaminida yashab kelayotgan biz — o'zbeklar uchun bir necha yildan buyon alohida dastur asosida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirib, o'zbek-qozog' xalqlari o'rtasida do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlab kelayotgan O'zbekistondagi "Vatandoshlar" jamoat fondiga, ushbu tadbirlarda faol qatnashib, o'z ijodi, san'ati bilan birodarlik aloqalari mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan o'zbekistonlik shoirlar, olimlar, san'atkorlarga samimiy minnatdoriлик bildiramiz.

Ahmed Boytursunov nomidagi maktabda o'tgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir ham qiziqarli, rang-barang dastur asosida tayyorlangani bilan yodda qoldi. Maktab direktori Larisa Sirotina ushbu ta'lim dargohida o'zbek tilini o'qitish va o'rganish ilg'or innovatsion vositalar asosida olib borilayotgani to'g'risida ma'lumot berdi:

— Maktabimizda o'zbek tilida o'tkaziladigan "Ona tilim — jon-u dilim" xalqaro tanlovi, fan olimpiadalari g'oliblari ko'p, — deydi u. — Mahoratli o'qituvchimiz Husnabod Saidaliyeva o'quvchilarga o'zbek milliy qo'shiq va raqslarini o'rgatadi. O'quvchilarimiz shahar va viloyat miqyosida o'tadigan san'at va madaniyat tadbirlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritmoqda.

Turkiston viloyati va Chimkent shahridagi maktab o'quvchilari o'rtasida Alisher Navoiy asarlarini targ'ib etish va o'rganishga qaratilgan uch bosqichdan iborat tanlov Chimkent shahridagi O'zbek drama teatrida bo'lib o'tdi. Ko'rik-tanlov qizg'in bahslar bilan kechdi. Tanlovni navoiyshunos, adabiyotshunos olimlardan iborat nufuzli hay'at baholab bordi. Hay'at a'zolari tarkibida o'zbekistonlik olim, filologiya fanlari doktori Hulkar Hamroyeva ham bor. Ushbu tanlov hamda "Ona tilim — jon-u dilim" xalqaro tanlovi, fan olimpiadalari



g'oliblariga bir necha tashkilotlarning, jumladan, qo'shni respublikada o'zbek tilida nashr etiladigan "Janubiy Qozog'iston" gazetasi tomonidan ham qimmatbaho esdalik sovg'alar topshirildi. Tajribali jurnalist va publitsist Rayimjon Aliboyev bosh muharrirlik qilib kelayotgan ushbu gazeta hozir katta adadda chop etiladi. U vatandoshlarimiz orasida qiziqib o'qilayotganini ham aytib o'tmoq joiz, albatta.

Chimkent shahridagi Jumabek Tashenov nomidagi universitet o'qituvchisi Shahlo Noraliyeva ko'p yillardan buyon shu tanlovlarni o'tkazishda tashabbuskor va mas'ul. Uning ta'kidlashicha, Alisher Navoiy asarlari yoshlarning ongiga kuch-quvvat beradi, insonlarni, ularni, xalqlarni birlashtiradi.

Muhtasham teatr sahnasida o'tgan badiiy-madaniy anjuman yakunida O'zbekiston davlat filarmoniyasi yakkaxon xonandalari Dilshod Hayitboyev va Dilnoza Otaxo'jayeva ijrosida Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur g'azallari asosida xalqona, zamonaviy qo'shiqlar ijro etildi.

— Qozog'iston zaminidagi millatdoshlarimiz, vatandoshlarimizning hayoti bilan yaqindan tanishib, kuzatib, ular har doim yurtimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatishiga amin bo'lasiz, — deydi O'zbekistonning Olmaota shahridagi bosh konsulxonasi birinchi kotibi Erkinjon Abduqayumov. — Xorijdagi vatandoshlarimizning farzandlari asosan ingliz, rus yoki mahalliy tillardagi maktablarda ta'lim oladi. Ular uchun, ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini chuqur o'rganish g'oyat muhim. Chunki alloma shoirlarning baytlari, hikmatlari, ruboiylari o'zga yurtlarda unib-o'sayotgan o'zbek bolalari va o'smirlar uchun kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Konsulning fikrlarini Qozog'istondagi o'zbek diasporasi faoli, katta hayotiy va mehnat tajribasiga ega inson — Ikrom Hoshimjonov ham qo'llab-quvvatladi:

— O'zbek — qozog', qozog' — o'zbek azaldan bir-biriga qiz olib, qiz bergan xalq. Bir-birining xonadonidan hech qachon qadami uzilmagan. Qadimdan buyon davom etib kelayotgan ana shu qondoshlik, jondoshlikni yangi davrda yangi bosqichga ko'targan O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlariga biz, nuroniyalar, faxriylar rahmat aytmiz. Keyingi yillarda dunyoda ro'y berayotgan keskin va ziddiyatli voqealar mintaqa davlatlarining o'z kelajagini qurishda hamjihat, hamkor bo'lishini taqozo etmoqda.

Hazrat Alisher Navoiyning:
Olam ahli, bilingizkim,
ish emas dushmanlig',

Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish degan hikmatli so'zlari bugun har qachongidan ham dolzarb bo'lib qoldi.

— Faoliyatim davomida yurtimiz bo'ylab yoki xorijiy mamlakatlarda ko'p safarlarda

osetin, eron, rus va belarus milliy-madaniy markazlari vakillari ishtirok etdi. "Do'stlik uyi"ning uzun, keng va yorug' zallarida o'zbek milliy liboslari ko'rgazmasi tashkil etildi. Bu yerda ham mezbom tomoniga o'zbek tilidagi badiiy kitoblar, milliy cholg'u asboblari sovg'a qilindi.

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi, tarix fanlari doktori Qahramon Matxoliqov taassurotlari, fikr-mulohazalarini bayon etar ekan, Navoiy va Bobur asarlarining O'zbekistonda va xalqaro miqyosda o'rganilishi, ularni nashr, tarjima qilish borasida qilinayotgan ishlari yuzasidan yana ma'lumotlarni taqdim etdi. Navoiy merosini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish hamda yosh avlod ongiga singdirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Anjumanda so'zga chiqqanlar Navoiy va Boburning boy ma'naviy merosi, jahon tamadduniga qo'shgan hisssasi haqida fikr-mulohazalar bildirdi, madaniy chiqishlar namoyish etildi. Mezbon va mehmonlar o'rtasida bo'lib o'tgan samimiy suhbatlar, iliq muloqotlar va aytilgan ezgu tilaklar kechaga alohida fayz bag'ishladi.

— O'zbek kuy-qo'shiqlari, she'rlarini yurakdan so'ng'ingan ekamiz, — deydi chimkentlik millatdoshimiz, bir necha yildan buyon "Vatandoshlar" jamoat fondi tadbirlarida faol qatnashib kelayotgan Yulduz Jahongirova. — Aslida, ona tilimizda jonli ijro etilgan qo'shiqlarga nima yetsin.

"Vatandoshlar" jamoat fondi, O'zbekiston Respublikasining Oqtov shahridagi bosh konsulligi, Qozog'iston xalqlari assambleyasi, Qozog'istondagi o'zbek va qoraqalpog' milliy madaniyat markazlari hamkorligida Atirav shahridagi "Do'stlik uyi"da Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga bag'ishlab o'tkazilgan adabiy kecha adabiyot, madaniyat va san'at anjumaniga, do'stlik, birodarlik bayramiga aylanib ketdi.

— O'zbekistonda ajdodlar merosiga hurmat, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni asrab-avaylashga e'tibor juda yuqori, — dedi Atirav shahri hokimi o'rinbosari Erdo'st Abdusattorov. — Nafaqat olimlar va keksa ziyolilar, balki yoshlar ham Navoiyni, Boburni yaxshi biladi. Ularning she'rlari, g'azallarini yoddan aytadi. Haqiqatan, Navoiy va Bobur asarlari nafaqat o'zbek va turkiy tili xalqlar, balki butun dunyo xalqlarining noyob boyligi ekaniga yana bir karra ishonch hosil qildik. Qozog' va o'zbek xalqlari o'rtasidagi adabiy do'stlik abadiy do'stlikka aylanib borayotir.

Diltortar kuy-qo'shiqlar barchani davraga chorladi, o'yin tushmagan bir kishi ham qolmadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist Baxtiyor Jumatoyevning qo'shiqlarini zalda o'tirgan vatandoshlarimiz jo'r bo'lib kuyildi.

"Vatandoshlar" jamoat fondi faollari Hojiakbar Is'hoqov, Odilbek Komilov, O'zbekistonning Oqtov shahridagi bosh konsuli Jamoliddinxo'ja Abdukurimovning jonbozligi bilan yuqori saviyada tashkil etilgan ushbu bayramda milliy madaniyat markazlari, o'zbek va qozog' yoshlari vakillari ishtirok etdi. Tanalanli tadbir o'zbek, qoraqalpog' va qozog' san'at ustalarining kuy-qo'shiqlari, raqslari bilan yakun topdi. Shuningdek, "Vatandoshlar" jamoat fondi hamda Qozog'istondagi o'zbek va qoraqalpog' milliy markazlari bilan kelgusidagi hamkorlik rejalari muhokama qilindi, yangi loyihalar bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Xullas, Qozog'istonda insoniyatni kamolotga chorlovchi g'oyalari ijodkori bo'lgan Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatildi. Yuqori saviyada o'tgan barcha tadbirlar va anjumanlarda ulug' mutafakkir va alloma shoirlarning ulkan ma'naviy merosi bugun ham millatlarni, qalblarni yaqinlashtirishga xizmat qilib kelayotgani ta'kidlandi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246.

Hajmi — 3 tabog. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy